

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

Konstitutsiya- qonun ustivorliging asosi sifatida.

Termiz davlat universiteti

**Yuridik fakulteti „Yurisprudensiya“ (faoliyat turlari bo‘yicha) yo‘nalishi 1-
bosqich talabasi**

Xo‘jamurodova Dildora

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotining hozirgi bosqichida qonun ustuvorligini ta’minlash, xalqaro tinchlikni mustahkamlash sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradigan huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda jahon tajribasidan kelib chiqqan holda har bir mamlakatda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoyalashni yanada kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta’minlash masalalariga a’lovida e’tibor qaratilmoqda.

Qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning asosiy huquqiy asosini albatta konstitutsiyamiz tashkil etadi. Ma’lumki Yangi O‘zbekistonda barcha sohalardagi yangilanish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlarini takomillashuvi asosiy qomusimizning ham yangi tahrirda qabul qilinishiga asos bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, konstitutsiyamizning yangi tahrirda qabul qilinishi shuningdek, bu huquqiy hujjatda huquqiy normalar va moddalar soni ko‘payishi albatta ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi faol o‘zgarishlar jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib hisoblanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bungga qadar 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘لامи kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman olganda yangi tahrirdagi konstitutsiya 65 foizga yangilandi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyada, eng avvalo inson huquqlari ya manfaatlarini himoya qilishga hamda ijtimoiy jihatdan aholi manfatlarini muhofaza

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

qilishda ko‘plab huquqiy jihatlarni yanada mustahkamlab olganligi bilan ham a’lohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasi “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”- deb nomlanishining o‘ziyoq yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol namunasi bo‘lib hisoblanadi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning muqaddimasida keltirilgan muhim prinsiplar bular barchasi O‘zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishida muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Jumladan Konstitutsiyada bu jumlalar quyidagicha keltirib o‘tilgan:

-Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘sghan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz”-deya ta’kidlangan so‘zlar har bir fuqarolarimizda vatanparvarlik tuyg‘ularini oshirib, jonajon O‘zbekistonimizni yanada kuchliroq sevishimizga asos bo‘lib xizmat qiladi.